



## JINOYAT ISHINI TAFTISH TARTIBIDA KO'RISHNING PROTSESSUAL ASOSLARI

**Nazarov Zafar Safarboyevich**

"Nazarov Zafar Safarboyevich"

advokatlik byurosi advokati,

TDYU mustaqil izlanuvchisi

+998998411060

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18667254>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2026 yil

Ma'qullandi: 15-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 17-fevral 2026 yil

### KEY WORDS

*taftish instansiyasi, birinchi instansiya sudi, sudya, protsessual qarorlar, ariza, shikoyat, protest.*

### ABSTRACT

*mazkur maqolada taftish tartibida jinoyat ishini ko'rishning protsessual asoslari, taftish instansiyasining vakolatlari hamda ishlarni mazmunan ko'rishda aynan nimalarga e'tibor qaratilishi lozimligi to'g'risidagi masalalar yoritib berilgan. Bundan tashqari, birinchi instansiya sudlari hukmlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari o'rganib chiqilgan, yuqori sud instansiya sudlari tomonidan qabul qilinayotgan sud qarorlari tuzilishi ko'rib chiqilgan.*

Jinoyat ishlarini taftish tartibida qayta ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-sentabrdagi "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-869-sonli qonuni asosida belgilangan. Ushbu instansiya ilk bor sud hukmlarning qonuniyligini, asosligini va adolatligini taftish tartibida, ya'ni ish apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilganidan so'ng tekshirish vakolatiga yega bo'lib, fuqarolarga sud hukmiga nisbatan yana bir bor shikoyat qilish imkoniyatini yaratib berdi.

Sud qarorlarini qayta ko'rishda viloyat sudlari hamda ularga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, fuqarolarning shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida kodekslarga bir qator o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi.

### Tadqiqotning Usullari.

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy, sotsiologik so'rov o'tkazish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

### Natijalar.

Birinchi instansiya sudining qaroridan norozi taraflar viloyat sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib, ularning ham natijalaridan qoniqmasa, ushbu ish mazkur sudlarda taftish tartibida ko'rib chiqiladi.

Binobarin, sud ishidan yana norozi bo'lgan taqdirda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko'rib chiqilgan ishlar Oliy sudning sudlov hay'atida qayta ko'rib chiqiladi[1].

Sud qarorlarini barqarorligini ta'minlash maqsadida barcha yuqori instansiyalarda ish bo'yicha nafaqat moddiy va protsessual qonun normalarini to'g'ri qo'llanganligini tekshirish, balki ularga to'liq sud tergovini o'tkazish vakolati berildi.

Taftish instansiyada ham ishlarni viloyat sudlar ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan. Keyingi instansiya Oliy sudida qayta takroran ko'riladi.

Taftish instansiyasi sudi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 482-moddasiga muvofiq ishlarni taftish tartibida ko'rishda taftish shikoyati (xususiy shikoyati), protesti (xususiy protesti) bo'yicha ishning haqiqiy holatlari to'liq aniqlanganligini va Jinoyat kodeksi normalari to'g'ri qo'llanilganligini, ish yuritishni amalga oshirish chog'ida JPK normalariga rioya etilgan-etilmaganligini, birinchi instansiya, apellatsiya, kassatsiya va tegishli taftish instansiyasi sudi hukmining, ajrimining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini ishda mavjud bo'lgan hamda taftish instansiyasi sudi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirilgan dalillar bo'yicha tekshiradi.

Taftish shikoyati (xususiy shikoyat), protesti (xususiy protest) quyidagi tartibda, ya'ni:

1) tuman (shahar) sudlarining apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari ustidan, shuningdek tuman (shahar) sudlari tomonidan ko'rilgan ishlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining apellatsiya yoki kassatsiya tartibida chiqarilgan hukmlari, ajrimlari ustidan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar, Toshkent shahar sudlariga;

2) hududiy harbiy sudlarning apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan ishlari bo'yicha hukmlari, ajrimlari ustidan, shuningdek hududiy harbiy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudining hukmlari, ajrimlari ustidan O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga — hukm, ajrim chiqargan sud orqali beriladi[2].

Oliy sudning Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga:

tuman (shahar) sudlari, hududiy harbiy sudlarning apellatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rilgan ishlari bo'yicha hukmlari, ajrimlari ustidan;

Oliy sud, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan ishlari bo'yicha hukmlari, ajrimlari va ular yuzasidan chiqarilgan apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasining hukmlari, ajrimlari ustidan taftish tartibida shikoyat (xususiy shikoyat), protest (xususiy protest) berilishi mumkin.

Qonun taftish tartibida shikoyat (xususiy shikoyat), protest (xususiy protest) berishga bo'lgan huquqni biror-bir muddat bilan cheklamaydi (JPKning 514-moddasi).

Shu bilan birga, agar shikoyat (xususiy shikoyat)da, protest (xususiy protest)da og'irroq jinoyat to'g'risidagi qonunni qo'llash zarurligi, jazoni kuchaytirish to'g'risida yoki mahkumning ahvoli yomonlashishiga olib keladigan boshqa o'zgartirishlar (mahkumni o'ta xavfli retsivist deb topish, jazoni ijro etish koloniyasining qattiqroq turini belgilash, shartli hukmni bekor qilish, moddiy zarar miqdorini ko'paytirish, basharti bu jinoyat kvalifikatsiyasi yoki ayblov mazmuni mahkumning ahvolini og'irlashishiga olib kelsa va hakoza.), shuningdek, oqlov hukmini yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi ajrimni bekor qilish to'g'risidagi masalalar qo'yilgan bo'lsa, ishni taftish tartibida qayta ko'rishga ustidan shikoyat (xususiy shikoyat), protest (xususiy protest) berilayotgan hukm, ajrim qonuniy kuchga kirganidan so'ng faqat bir yil ichida yo'l qo'yiladi.

Ushbu muddat o'tgandan so'ng berilgan, mahkumning, oqlangan va ishi tugatilgan shaxsning ahvolini og'irlashtirishga qaratilgan talablar qo'yilgan shikoyat (xususiy shikoyat), protest (xususiy protest) taftish instansiyasi sudi tomonidan ko'rib chiqilmaydi va uni bergan shaxsga qaytariladi[3].

#### **Muhokama.**

Taftish instansiyasi sudida ishning muhokamasi, JPKning 483, 5213 va 52116-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar inobatga olingan holda, birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari asosida olib boriladi. JPKning 483-moddasiga muvofiq, sud jinoyat ishini taftish tartibida ko'rishda shikoyat, protest vajlari bilan chegaralanmasdan, sud qarorlari qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini barcha mahkumlarga, oqlangan shaxslarga, shu jumladan, shikoyat bermagan shaxslarga yoki o'ziga nisbatan shikoyat, protest berilmagan mahkumlarga, oqlangan shaxslarga nisbatan ham to'liq hajmda tekshiradi. Sud qarorlarini to'liq hajmda tekshirilishiga qilmishning jinoiyligi bekor qilinsa, jazo yengillashtirilsa yoki shaxsning ahvoli boshqacha tarzda yaxshilansagina yo'l qo'yiladi[4].

Agar bu mahkum, oqlangan shaxs ahvolidan og'irlashuviga olib kelsa, prokuror protesti yoki jabrlanuvchining, uning vakilining shikoyati bo'lmagan hollarda, sud shikoyatda, protestda keltirilgan vajlar doirasidan chetga chiqishga, shuningdek, taftish shikoyati bermagan mahkumlarga, oqlangan shaxslarga nisbatan ishni ko'rishga haqli emas[5].

Agar quyi instansiya sudi tomonidan sud tergovining to'liq emasligiga yoki bir yoqlamaligiga yoxud protsessual buzilishlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, taftish instansiyasi sudi to'liq yoki qisman sud tergovini o'tkazish yo'li bilan bo'shliqlarning o'rnini to'ldirish, protsessual buzilishlarni bartaraf etish choralari ko'radi. Shu maqsadda taftish instansiyasi sudi ish holatlari to'la, har tomonlama va xolisona tekshirib chiqilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, JPK 483-moddasi uchinchi qismining 1 – 7-bandlarida nazarda tutilgan harakatlarni bajarishga haqli.

Taftish instansiyasi sudi taraflarning iltimosnomalarini (yangi guvohlarni so'roq qilish, ekspertizalar o'tkazish, ashyoviy dalillar va hujjatlarni talab qilib olish va boshqalar haqida), ular birinchi instansiya sudi tomonidan rad etilganligi sababligina, rad etishga haqli emas. Zarur hollarda sud qo'shimcha dalillarni talab qilib olishda tashabbus ko'rsatishi lozim[6].

JPKning 398, 447-moddalariga muvofiq, qo'shimcha materiallarni talab qilib olishda muayyan tergov harakatlarini o'tkazish zarurati tug'ilsa, bu haqida taftish instansiyasi sudi ajrim chiqarishi va ijro uchun tegishli tergov organiga yuborishi mumkin. Ishning muhokamasi esa, keyinga qoldiriladi.

Taftish instansiyasi sudi qaror qabul qilish chog'ida birinchi, apellatsiya yoki kassatsiya va tegishli taftish instansiya sudi tomonidan tekshirilgan dalillarni ham, taftish instansiyasi sudiga taraflar tomonidan taqdim etilgan yoki u tomonidan talab qilib olingan va tekshirib chiqilgan yangi dalillarni ham e'tiborga oladi[7].

Yana bir jihati shuki, bu instansiya alohida tartibda ish yuritishning qoidalariga egam ya'ni, Oliy sudning Rayosatida taftish tartibida takroran ish yuritishdir. JPKning 55 va 562-boblarida nazarda tutilgan qoidalar inobatga olingan holda, birinchi instansiya sudida ish yuritish qoidalari asosida olib boriladi.

Ishni taftish tartibida takroran ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, Oliy sudning Rayosati JPKning 52117-moddasida nazarda tutilgan vakolatlari doirasida hukm yoki qaror chiqaradi. Oliy sud Rayosatining hukmi, qarori uzil-kesil bo'lib, bundan JPK 485-moddasining 6 (Jinoyat

kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasidagi yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi haqidagi normaning qo'llanilish zaruriyati mavjudligi) va 7-bandlarida (qilmishning jinoyiligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonunning qonuniy kuchga kirganligi) hamda 5217- moddasida (ishni taftish instansiyasi sudida qo'shimcha tarzda ko'rish) nazarda tutilgan hollar mustasno ekanligi belgilab berilgan.

#### **XulosA.**

Jinoyat-protsessual kodeksida taftish instansiyasida ishni ko'rish uchun asos bo'ladigan moddiy va protsessual huquq normalarining qo'llanilishidagi jiddiy xatoliklar tushunchasini yanada batafsil ochib berish lozim. Bu, sudylar va shikoyat beruvchilar uchun yagona amaliyotni shakllantirishga yordam beradi.

Taftish instansiyasida faqat huquqiy baholash bilan cheklanmasdan, zarur hollarda yangi dalillarni taqdim etish va tekshirish tartibini aniq belgilash. Bu, asossiz sud qarorlarini bekor qilish imkoniyatini oshiradi.

Taftish tartibi sud qarorlari ustidan shikoyat qilish imkoniyatini muddatsiz qilgani uchun, Oliy sudning yoki viloyat sudlarining Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atlariga ko'p sonli ishlar oqimi kelib tushishi, bu esa sudyalarning ish yukini oshirishi va ish ko'rish muddatlarini uzaytirishi mumkin. Taftish instansiyasining, asosan, huquqiy masalalarni tekshirishga qaratilganligi tufayli, agar jiddiy protsessual buzilish bo'lmasa, ishning faktik holatlarini qayta tekshirishda cheklovlar yuzaga kelishi mumkin. Taftish tartibi adolatni tiklashga xizmat qilish o'rniga, oddiygina apellyatsiya yoki kassatsiya shikoyatini takrorlash instansiyasiga aylanib qolishi xavfi mavjud. Shu sababli o'zaro ularning vakolatlarini qayta ko'rib chiqish, ishlarning olib borishning protsessual tartib va asoslarini ham o'zgacha shaklda berish maqsadga muvofiq bo'ladi..

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 25.06.2024-yildagi 18-son; <https://www.lex.uz/docs/-7001552>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi; <https://www.lex.uz/docs/-111460>
3. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni. [lex.uz/docs/68532](https://www.lex.uz/docs/68532).
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. [www.lex.uz/docs/20596](https://www.lex.uz/docs/20596).
5. Jinoyat protsessi (maxsus qism): darslik/ Mualliflar jamoasi: Inog'omjonova Z.F. Jinoyat protsessida hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirishda sud nazorati: o'quv qo'llanma/ Z.F. Inog'omjonova; Mas'ul muharrir: M.X. Rustamboev. – T.: TDYI, 2006. – 148 b.
6. Tuxtasheva U.A. Ugolovno-protsessualnye puti ustraneniya sudebnyx oshibok: Monografiya. – T.: Izdatelstvo TGYuU, 2020. – S. 9-23.
7. Suyunova, D.J. Jinoyat protsessida sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligini, adolatligini tekshirish [Mant]: darslik / Suyunova, D.J. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 142 b.